



XXI ASR KO'NIKMALARI: TA'LIMNING 4K MODELI – O'QUVCHILARNING QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Urazbayev Muratbay Amanbayevich

Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarda 4K ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada integratsiyalashgan yondashuv asosida darslarni samarali tashkil etish bo'yicha maslahatlar berilgan. Integratsiyalashgan usulda tashkil etilgan darslarda o'quvchilar o'tilayotgan mavzularni tez va oson o'zlashtiradilar va uzoq vaqt xotiralarida saqlaydilar.*

***Kalit so'zlar:** 4K modeli, kollaboratsiya, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, integratsiya.*

Bugungi kunda ta'lim iqtisodiy, rivojlanish, ijtimoiy, ma'naviy intellektual yuksalish fuqorolik jamiyati hamda yoshlarni pozitiv dunyoqarashini rivojlantirishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. "O'zbekiston 2030" pedagogik ta'lim oldida maqsadlarni belgilab qo'ydi. Layoqatli individual psixologik xususiyatga ega bo'lan o'quvchilar bilan ishlashga qaratilgan. Zamonaviy ilm-fanning o'ziga xosligi, nazariy va amaliy bilimlarni hayotga qo'llay oladigan kadrlarni yetishtirish yuzasidan asosiy vazifalarni belgilab berdi.

Maktab va maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 5-11-sinf Informatika darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan muhimi zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning nazariy bilim olishiga etibor qaratganmiz. Yangi kitoblarda o'quvchi mustaqil talim olish bilan birga mavzuni jamoada ishlash uchun mashqlar, mustaqil ishlash uchun amaliy mashqlar berilgan va darsliklar sinflar kesimida uzviy bog'lanib oddiydan murakkabga tomon yo'naltirilgan. Zamonaviy ta'lim informatika va axborot texnologiyalari darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozimligini taqazo etadi. Ta'limni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog'liq. Ana shunday yondashuvlardan biri "4K" modelidir. Kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi tushunchalarni qamrab olgan "4K" modeli o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, tanqidiy,



kreativ va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishda muhim onildir. Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Kollaboratsiya – darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik – darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar.

Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradilar. Informatika darslarida bilimlarni mustaqil o'rganish amaliy ko'nikmalarni yakka va onlay o'rganish muhiti ham yaratilgan. Bu darsdan tashqari o'quvchilarning bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishlariga ham zamin yaratib bermoqda. Yangi darsliklardagi amaliy mashg'ulotlar hayotga bog'langan holda rasmi shaklda berilgan, o'quvchi mustaqil o'z-o'zini baholashi va jamoada hamkorlikda ishlashga undaydi.

Darsliklardaga mavzulani turli strategiyalarga asoslab o'tish qulay jumladan guruhda ishlash, internetdan foydalanib tadqiqot olib boorish, Juftliklarda ishlash, ma'lum bilim va ko'nikmalarni yangilari bilan bog'lash, o'zini o'zi baholash kabi metodlardan foydalanish mumkin. O'qituvchilar va ota-onalar yangi darslik va o'qitish usullarining samaradorligi o'quvchilarni kelajakdagi qiyinchiliklarga yetarli darajada tayyorlay oladimi yoki yo'qmi? shu haqida ularning tashvishlanishlari ham



kutiladi. Ular o'zimizda hali sinovdan o'tmagan usullar o'quvchilarning bilim olishlarida ko'p muammolarga duch kelishlari mumkinligidan xavotir oladilar:

- yangi darsliklar va o'qitish usullarini joriy etish ko'pincha o'qituvchilarning malakasini oshirish va kop izlanishini talab qiladi. Agar o'qituvchilar bu jarayonni yaxshi o'zlashtira olmasalar, yanada kattaroq muammolar ichida qolishi mumkin. Shuningdek, to'g'ri yo'l-yo'riqsiz yangi usullarni samarali qo'llay olish qobiliyatlarini ishga tushirish qiyinligidan bezovta bo'lishi mumkin;

- darsliklarni yangidan loyihalashda ba'zan o'quv dasturi avvalgi o'qitilayotgan o'quv dasturidan mazmun jihatidan tubdan farq qilishi mumkin. O'qituvchilar va ota-onalar agar ular yangi material noto'g'ri tuzilgan yoki kerakli darajada nazariy bilimlar berilmagan deb hisoblasa ham e'tiroz bildirishlari mumkin. Shuningdek, yangi darsliklarning sifati, ishonchliligi va texnik xatolari haqida ham muhokama qilishlari mumkin;

- o'qituvchilar va ota-onalarda ko'pincha vaqt tanqisligi kuzatilib, ular o'zlari o'rnatgan tartib-qoidaga va odatlarga o'rganib qolishgan. Ayniqsa, o'qituvchilar uchun o'qitishning yangi usullarini joriy etish va yangi ishlab chiqilgan darsliklardan foydalanish dars rejalarini moslashtirish, yangi materiallar to'plash va yangi o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish uchun qo'shimcha talablar qo'yiladi. Bu esa o'qituvchidan qo'shimcha bilim, mehnat, kuch, vaqt va qunt talab etadi. Shu tufayli qarshiliklar kelib chiqishi mumkin, chunki bu qo'shimcha yuk sifatida qabul qilinadi;

- maktab tizimi va eski darsliklar ko'pincha bir xil tartibdagi nazariy bilimlarga tayangan bo'lib, bu doim takrorlanadigan holga aylangan. Osongina bunday o'qitish usuli va darsliklar bilan ta'lim olayotgan o'quvchilarda u qadar yuqori natijalar bo'lmasada, hammaga birdek yoqqan desak mubolag'a bo'lmaydi. O'qituvchilar yillar davomida qo'llanilgan ba'zi darsliklarga yoki o'qitish usullariga shaxsiy va hissiy jihatdan juda o'rganib qolishgan. Shu tufayli yangi darslik ular uchun an'analardan voz kechish sifatida qabul qilinmoqda;

- yangi darslikda berilgan ma'lumotlar, hajmi u qadar katta bo'lmasada, unda berilgan topshiriqlar sonining ko'pligi va har xilligi, biri boshqasini takrorlamasligi hamda mashq va masalalarning eski darslikdagi qiymatiga ko'ra ancha qimmatligi, ya'ni ancha yuqori saviyali bilimlarni, teran fikr va tafakkurni talab etishi, ularning yechimini topa olmagan taqdirda ancha vaqtni talab etishi, har bir mavzu yuzasidan qo'shimcha hayotiy yondosh mavzularning berilganligi va berilgan vazifaning yechimi aniqlikni talab etishi kabi ko'plab yangicha ko'z qarashlarni targ'ib etuvchi omillar ham e'tirozlarga sabab bo'lishi mumkin;



• har bir dars o'qituvchidan yangicha metodikani talab etadi. O'qituvchi bir xillikdan qochib har bir darsga o'zgacha tayyorgarlik bilan kelishini va bu dars zamonaviy interaktiv usullar asosida o'tilishini hamda kerakli ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlanishini taklif va talab etadi. Chunki darslikning o'zida aynan bu kabi usullarga tayyor topshiriqlar keltirilgan. Undan foydalanmaslikning iloji yo'q. Quyida keltirilgan ayrim metodlar shular jumlasidandir.

Shuni aytish kerakki, darsliklar va o'qitish usullarining o'zgarishiga hamma o'qituvchilar va ota-onalar ham e'tiroz bildirmayabdilar. Bu albatta, quvonarli. Ko'pchilik innovatsiyalarga ochiq va tez o'zgaruvchan dunyoda o'quvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun ta'limni moslashtirish zarurligini tan oladi. O'zgarishlarni va yangi darsliklarni zamon talabi darajasida zarurligini tushunib yetib, o'quvchilar bilimni yuksak sifatli bo'lishini ta'minlashni asosiy maqsad sifatida qarashni oliy maqsad qilgan har bir o'qituvchi va ota-ona duch kelayotgan muammolarga oqilona yondashib, to'g'ri yechim topsalar yangi darsliklar haqidagi tashvishlari o'rinsiz ekanliklarini tushunib yetadilar. Albatta, bunday vaziyatda maktab ma'muriyati, o'qituvchilar va ota-onalar hamkorlikda ishlashlari va bir ovozdan qaror qabul qilishlari katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr "O'zbekiston 2030" strategyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmoni.
2. Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Va O'qitish Vazirligi.
3. Muslimov N.A, Usmonboyeva M.H. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. – Toshkent, 2015-yil.
4. Xolmanova, Z., & Shamsiyeva, M. Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati. O'zbekiston, 6.
5. Бацунов С.Н., Дереча И.И., Кунгурова И.М., Слизкова Е.В. Modern Determinants of Development soft skills // Концепт. 2023. No 4. С. 198–207. DOI 10.24 422/МСИТО.2018.4.12 367. (in Russ.).